

Излаш



[Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida](#)

1-ILOVA
Mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish QOIDALARI

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Mahsulotlarni raqamli markirovkalashni joriy qilish tartibi

3-bob. Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarining markirovkalash axborot tizimi bilan axborot almashuvi tartibi

4-bob. Markirovkalash axborot tizimida mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish

5-bob. Mahsulotlarni markirovkalash bo'yicha axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish

6-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarining xususiyatlari

7-bob. Markirovkalash kodlarini taqdim etish qoidalarini

8-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarini qo'llash tartibi

9-bob. Markirovkalash axborot tizimiga mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarning aylanmaga kiritilishi, ularning aylanmasi va aylanmadan chiqarish ma'lumotlarini taqdim etish tartibi va muddatlari hamda markirovkalash axborot tizimining boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro hamkorligi tartibi

10-bob. Markirovkalash axborot tizimida mavjud ma'lumotlarga o'zgartirish kiritish tartibi

11-bob. Qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish

12-bob. Majburiy raqamli markirovka qoidalarini buzish turlari

2-ILOVA
"Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va undan foydalanish tartibi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Markirovkalash axborot tizimining tuzilmasi

3-bob. Markirovkalash axborot tizimining ishtirokchilari

4-bob. Markirovkalash axborot tizimini yaratish, rivojlantirish, ishga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2020 yildagi 833-son

Кучга кириш санаси

31.12.2020

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

AYRIM TURDAGI MAHSULOTLARNI MAJBURIY RAQAMLI MARKIROVKALASH TIZIMI BOSQICHMA-BOSQICH JORIY ETILISHINI TA'MINLASH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son va "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son qarorlari ijrosini ta'minlash, shuningdek, mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish qoidalarini belgilash hamda ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Vazirlar Mahkamasining "Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to'g'risida" 2020-yil 20-noyabrdagi 737-son qaroriga muvofiq:

2021-2022-yillarda identifikatsiya vositalari bilan majburiy raqamli markirovkalash talabi joriy qilinadigan mahsulotlar ro'yxati (keyingi o'rinlarda — Ro'yxat) tasdiqlanganligi;

"Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — "Asl belgisi" MAT) joriy etilganligi;

markirovkalanmagan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish yuzasidan tegishli imkoniyatlar "Soliq hamkor" tizimi hamda "Soliq" mobil ilovalarida yaratilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va "CRPT TURON" mas'uliyati cheklangan jamiyat o'rtasida to'g'ridan to'g'ri muzokaralar asosida davlat-xususiy sheriklik bitimi tuzilganligi;

"CRPT TURON" mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan 2021-yil 1-iyulga qadar "Asl belgisi" MATga tegishli intellektual faoliyat natijalariga doir mutlaq huquqlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi ta'minlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining majburiy markirovkalanadigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilarga markirovka kodlarini taqdim etish yuzasidan xizmatlar ko'rsatish uchun yagona to'lov (tarif) miqdorini qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmasdan 1 kod uchun 68 so'm miqdorida belgilash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Oldingi tahrirga qarang.

Bunda majburiy raqamli markirovkalanishi belgilangan mahsulotlarning xorijiy ishlab chiqaruvchilariga markirovkalash kodlarini taqdim etish bo'yicha xizmatlar haqini chet el valyutasida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mazkur kodlar berilgan kundagi kursi bo'yicha milliy valyutada tasdiqlangan tarif miqdorida to'lash huquqi beriladi.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

4. Quyidagilar:

Mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish qoidalarini 1-ilovaga muvofiq;

"Asl belgisi" mahsulotlarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Tamaki mahsulotlarini identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash xususiyatlari to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

Alkogol mahsulotlarini identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash xususiyatlari to'g'risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda:

mahsulotlarni raqamli markirovkalash bo'yicha ixtiyoriy eksperimentlar amalga oshirilishini;

raqamli markirovka qilinishi lozim bo'lgan mahsulotlar ro'yxati kengaytirilishini va ularni joriy etish muddatlari belgilanishini ta'minlasin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi:

savdo shoxobchalarini shtrix-kodlar va raqamli markirovka kodlarini to'g'ri o'qishni va aniqlashni ta'minlovchi maxsus qurilmalar (2D-skanerlar, ma'lumotlarni yig'uvchi terminallar yoki boshqa turdagi maxsus qurilmalar) bilan ta'minlash yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rsin;

maxsus qurilmalarni xarid qilgan tadbirkorlik subyektlarining belgilangan imtiyozlardan foydalanishi to'g'risida keng targ'ibot tadbirlarini amalga oshirib borsin;

ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash bo'yicha talablarning bajarilishi, shuningdek, mazkur mahsulotlarning aylanmasi ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish qoidalari talablariga rioya etilishi ustidan qat'iy nazorat qilib borsin.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Moliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda:

2021-yil 30-dekabr qadar dori vositalari va tibbiy buyumlarni;

2022-yil 1-martga qadar suv va salqin ichimliklarni;

2022-yil 1-mayga qadar maishiy texnikalarni markirovkalash va kuzatish tartiblarini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [5-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [6-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha o'rinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo'chqorov va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi Sh.D. Kudbiyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2020-yil 31-dekabr,
833-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil
31-dekabrda 833-son qaroriga
1-ILOVA

Mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish

QOIDALARI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Qoidalar mahsulotlarni raqamli identifikatsiyalash yo'li bilan markirovkalash, shu jumladan, raqamli identifikatsiyalash vositalarini qo'llash va shakllantirish, majburiy markirovka qilinishi lozim bo'lgan mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan majburiy markirovka qilinishi kerak bo'lgan mahsulotlar aylanmasi haqidagi ma'lumotlarni markirovkalash axborot tizimiga kiritish maqsadida Raqamli markirovkalash va kuzatish milliy axborot tizimi operatoriga (keyingi o'rinlarda — Operator) taqdim etish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Qoidalar quyidagilarga:

a) normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash va baholash maqsadida texnik tajribalar o'tkazish uchun yetarli bo'lgan miqdordagi namunalarni saqlash va transportda tashishda;

b) namuna eksponat, reklama va marketing namunalari sifatida xalqaro ko'rgazmalar va yarmarkalarning tashkilotchilari va ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriluvchi va sotish (savdo) uchun mo'ljallanmagan mahsulotlarga;

v) bojxona nazorati ostida turgan mahsulotlarga;

g) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq xorijiy muruvvat (gumanitar) va xalqaro texnik yordam hisoblangan mahsulotlarga;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

d) "boj olinmaydigan savdo" (Duty free) bojxona rejimida realizatsiya qilinadigan mahsulotlarga;

(2-bandning "d" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Излаш



[Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida](#)

1-ILOVA
[Mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish QOIDALARI](#)

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Mahsulotlarni raqamli markirovkalashni joriy qilish tartibi

3-bob. Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarining markirovkalash axborot tizimi bilan axborot almashinuvi tartibi

4-bob. Markirovkalash axborot tizimida mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish

5-bob. Mahsulotlarni markirovkalash bo'yicha axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish

6-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarining xususiyatlari

7-bob. Markirovkalash kodlarini taqdim etish qoidalari

8-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarini qo'llash tartibi

9-bob. Markirovkalash axborot tizimiga mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarning aylanmaga kiritilishi, ularning aylanmasi va aylanmadan chiqarish ma'lumotlarini taqdim etish tartibi va muddatlari hamda markirovkalash axborot tizimining boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro hamkorligi tartibi

10-bob. Markirovkalash axborot tizimida mavjud ma'lumotlarga o'zgartirish kiritish tartibi

11-bob. Qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish

12-bob. Majburiy raqamli markirovka qoidalari buzish turlari

2-ILOVA
["Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va undan foydalanish tartibi to'g'risida NIZOM](#)

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Markirovkalash axborot tizimining tuzilmasi

3-bob. Markirovkalash axborot tizimining ishtirokchilari

4-bob. Markirovkalash axborot tizimini yaratish, rivojlantirish, ishga

e) sotishga tayyor bo'lmagan, shu jumladan, iste'mol o'ramiga qadoqlanmagan mahsulotlarga, shu mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan saqlanishida;

(2-bandning "e" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

Oldingi tahrirga qarang.

j) muomaladan chiqarilgan, olib qo'yilgan, musodara qilingan yoki boshqa usulda O'zbekiston Respublikasi daromadiga o'tkazilgan mahsulotlarga va mahsulotlarni saqlashda va transportda tashishda, sotilishida (savdosida) O'zbekiston Respublikasining soliq va bojxona to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmaganligi hisobiga jarima solingan mahsulotlarga hamda yo'q qilinishi kerak bo'lgan mahsulotlarga ularni saqlashda va transportda tashishda;

(2-bandning "j" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Oldingi tahrirga qarang.

z) qonunchilik hujjatlarida belgilangan bojxona to'lovlari undirilmaydigan tovarlarni respublikaga olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan mahsulotlarga;

(2-bandning "z" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

i) diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalari, xalqaro, davlatlararo va hukumatlararo tashkilotlar, ularning vakolatxonalarini, ularning huzuridagi davlatlar vakolatxonalarini tomonidan rasmiy foydalanish uchun mo'ljallangan mahsulotlarga, ularni saqlashda, transportda tashishda va qo'llashda;

Oldingi tahrirga qarang.

k) O'zbekiston Respublikasi hududidan eksportga olib chiqib ketish va tranzit uchun mo'ljallangan mahsulotlarga.

(2-bandning "k" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 322-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/322/0481-son)

l) sinovdan o'tkazish va tekshirish uchun mo'ljallangan va sotish (savdo) uchun mo'ljallanmagan mahsulotlarning namunalari;

m) agar mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisi xorijiy ishlab chiqaruvchi va yuridik yoki jismoniy shaxslar o'rtasida homiylik bitimini bajarish maqsadlarida xorijiy ishlab chiqaruvchining topshirig'i bo'yicha komissiya (agentlik) shartnomasi doirasida harakat qilayotgan holatda mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriluvchi va sotish (savdo) uchun mo'ljallanmagan mahsulotlarga tatbiq etilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

3. Raqamli identifikatsiyalash vositalari bosib tushirilmagan mahsulotlarni sotib olishda, saqlashda, aylanmaga kiritishga va raqamli identifikatsiyalash vositalari yordamida mahsulotlarni markirovkalash to'g'risidagi ma'lumotlarni markirovkalash axborot tizimiga kiritishga hamda raqamli identifikatsiyalash vositalari yordamida markirovkalanmagan mahsulotlar aylanmasi va aylanmadan chiqarilishiga muvofiq mahsulot guruhi uchun raqamli identifikatsiyalash vositalari yordamida markirovkalash xususiyatlari bilan belgilangan sanagacha yo'l qo'yiladi.

Majburiy raqamli markirovkalash boshlanini belgilangan sanadan so'ng mahsulotlarni raqamli identifikatsiya vositalarini qo'llamasdan muomalaga kiritish va markirovkalash axborot tizimiga ma'lumot yubormaslik, shuningdek, raqamli identifikatsiya vositalari bilan markirovkalanmagan mahsulotlarni sotib olish, saqlash, muomalaga kiritish va muomaladan chiqarish, shu jumladan, ushbu operatsiyalarni tegishli mahsulot guruhi uchun identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash xususiyatlari bilan belgilangan me'yorlarni yohud ushbu Qoidalarni buzgan holda amalga oshirish, majburiy raqamli markirovkalash qoidalarni buzish deb hisoblanadi va qonunchilikda belgilangan javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

4. Mazkur Qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

agregatsiyalash — yaratiluvchi guruhlangan qadoq va (yoki) transport qadog'ining identifikatsiyalash kodi bilan har bir joylashtirilgan iste'mol qadog'i, guruhlangan qadoq, transport qadog'ining identifikatsiyalash kodlarining o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi ma'lumotni saqlovchi yaratiluvchi guruhlangan qadoq va (yoki) transport qadog'iga bosib tushirish bilan iste'mol qadog'ini birinchi daraja guruhlangan qadog'iga va (yoki) transport qadog'iga hamda birinchi daraja transport qadoqlarining keyingi daraja transport qadog'iga mahsulotlarni birlashtirish jarayoni;

Oldingi tahrirga qarang.

agregatsiyalangan import kodi — operator tomonidan shakllantiriladigan va bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatiladigan, o'zi bilan har bir mahsulotning markirovka kodlarini

Излаш



[Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida](#)

[1-ILOVA Mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish QOIDALARI](#)

[1-bob. Umumiy qoidalar](#)

[2-bob. Mahsulotlarni raqamli markirovkalashni joriy qilish tartibi](#)

[3-bob. Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarining markirovkalash axborot tizimi bilan axborot almashinuvi tartibi](#)

[4-bob. Markirovkalash axborot tizimida mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish](#)

[5-bob. Mahsulotlarni markirovkalash bo'yicha axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish](#)

[6-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarining xususiyatlari](#)

[7-bob. Markirovkalash kodlarini taqdim etish qoidalarini](#)

[8-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarini qo'llash tartibi](#)

[9-bob. Markirovkalash axborot tizimiga mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarning aylanmaga kiritilishi, ularning aylanmasi va aylanmadan chiqarish ma'lumotlarini taqdim etish tartibi va muddatlari hamda markirovkalash axborot tizimining boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro hamkorligi tartibi](#)

[10-bob. Markirovkalash axborot tizimida mavjud ma'lumotlarga o'zgartirish kiritish tartibi](#)

[11-bob. Qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish](#)

[12-bob. Majburiy raqamli markirovka qoidalari buzish turlari](#)

[2-ILOVA "Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va undan foydalanish tartibi to'g'risida NIZOM](#)

[1-bob. Umumiy qoidalar](#)

[2-bob. Markirovkalash axborot tizimining tuzilmasi](#)

[3-bob. Markirovkalash axborot tizimining ishtirokchilari](#)

[4-bob. Markirovkalash axborot tizimini yaratish, rivojlantirish, ishga](#)

birlashtiruvchi mahsulotlarning alohida jamlanmasi uchun belgilarning takrorlanmas ketma-ketligi;

(4-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

mahsulotlarni aylanmaga kiritish — mahsulotni ishlab chiqarishda:

O'zbekiston Respublikasi hududida — ishlab chiqaruvchidan yangi mulkdorga yoki boshqa shaxsga bunday shaxsga uning tasarruf etishi maqsadida yoki uni tarqatish va (yoki) qo'llash uchun erishimli qiluvchi keyingi sotilishi uchun mahsulotning birlamchi pulli yoki bepul uzatilishi;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ishlab chiqarilgan maishiy texnika mahsulotlari — import qiluvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasida ichki iste'molga chiqarish (realizatsiya);

markirovkalash maqsadida mahsulotlarni aylanmaga kiritish quyidagicha e'tirof etiladi:

mahsulotning kelajakda sotilishi (savdosi) bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlar uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan avval sotib olingan mahsulotning ularga pulli yoki bepul uzatilishi;

yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan mahsulotlarni pulli va (yoki) bepul berib yuborish, egasiz, muomaladan chiqarilgan, musodara qilingan, taqiq qo'yilgan, sud va vakolatli organlarning qaroriga muvofiq davlat hisobiga o'tkazilgan mulkni qonunchilikka muvofiq yangi mulkdorga sotish;

komissiya shartnomalari doirasida yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanmaydigan jismoniy shaxslardan olingan mahsulotlarning komissioner tomonidan sotilishi (savdosi);

(4-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

O'zbekiston Respublikasi hududida — ishlab chiqaruvchidan yangi mulkdorga yoki boshqa shaxsga bunday shaxsga uning tasarruf etish maqsadida yoki uni tarqatish va (yoki) qo'llash uchun erishimli qiluvchi keyingi sotilishi uchun mahsulotning birlamchi pulli yoki bepul uzatilishi;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida — O'zbekiston Respublikasiga olib kiriluvchi mahsulotning ichki iste'moli uchun bojxona organlari tomonidan chiqarilishi;

markirovkalash maqsadida mahsulotlarni aylanmaga kiritish quyidagicha e'tirof etiladi:

mahsulotning kelajakda sotilishi (savdosi) bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlar uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan avval sotib olingan mahsulotning ularga pulli yoki bepul uzatilishi;

yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan mahsulotlarni pulli va (yoki) bepul berib yuborish, egasiz, muomaladan chiqarilgan, musodara qilingan, taqiq qo'yilgan, sud va vakolatli organlarning qaroriga muvofiq davlat hisobiga o'tkazilgan mulkni qonunchilikka muvofiq yangi mulkdorga sotish;

komissiya shartnomalari doirasida, yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanmaydigan jismoniy shaxslardan olingan mahsulotlarning komissioner tomonidan sotilishi (savdosi);

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

mahsulotning aylanmadan chiqarilishi — shaxsiy iste'mol uchun jismoniy shaxsga markirovkalangan mahsulotning sotilishi (savdosi), mahsulotni muomaladan chiqarish (musodara qilish), utilizatsiya qilinishi, yo'q qilinishi, yo'qotilishi va avval O'zbekiston Respublikasi hududida aylanmada bo'lgan mahsulotning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga sotilishi, mahsulotni shaxsiy ehtiyojlar uchun qo'llanilishi hamda mahsulotning kelajakda aylanishi to'xtatilishini ko'zlagan boshqa harakatlar;

(4-bandning o'n birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

guruhlangan qadoq — mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisi tomonidan shakllantiriluvchi polimer plyonka yoki qog'oz bilan o'ralgan yoki guruhlangan qadoqning identifikatsiyalash kodiga ega bo'lgan qog'oz tasma bilan qoplangan va uni tarqatish imkoniyati bilan sotilishi kerak bo'lgan mahsulotlar majmui;

import qiluvchi — O'zbekiston Respublikasi hududida mahsulotlarni sotish maqsadida O'zbekiston Respublikasiga mahsulotlarni olib kiruvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

individual seriya raqami — mahsulot kodiga asosan mahsulotlar birligini yoki mahsulotlar to'plami yoki mahsulotlar jamlanmasi yoki guruhlangan qadoqni noyob identifikatsiya qiluvchi belgilarning ketma-ketligi;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

markirovkalash axborot tizimi — "Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimi;

Излаш



[Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida](#)

1-ILOVA
[Mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish QOIDALARI](#)

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Mahsulotlarni raqamli markirovkalashni joriy qilish tartibi

3-bob. Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarining markirovkalash axborot tizimi bilan axborot almashuvi tartibi

4-bob. Markirovkalash axborot tizimida mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish

5-bob. Mahsulotlarni markirovkalash bo'yicha axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish

6-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarining xususiyatlari

7-bob. Markirovkalash kodlarini taqdim etish qoidalar

8-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarini qo'llash tartibi

9-bob. Markirovkalash axborot tizimiga mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarning aylanmaga kiritilishi, ularning aylanmasi va aylanmadan chiqarish ma'lumotlarini taqdim etish tartibi va muddatlari hamda markirovkalash axborot tizimining boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro hamkorligi tartibi

10-bob. Markirovkalash axborot tizimida mavjud ma'lumotlarga o'zgartirish kiritish tartibi

11-bob. Qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish

12-bob. Majburiy raqamli markirovka qoidalarini buzish turlari

2-ILOVA
["Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va undan foydalanish tartibi to'g'risida NIZOM](#)

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Markirovkalash axborot tizimining tuzilmasi

3-bob. Markirovkalash axborot tizimining ishtirokchilari

4-bob. Markirovkalash axborot tizimini yaratish, rivojlantirish, ishga

(4-bandning o'n beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

markirovka kodi — identifikatsiyalash kodidan va tekshirish kodidan tashkil topgan Operator tomonidan shakllantiriladigan belgilarning noyob ketma-ketligi;

identifikatsiyalash kodi — o'zi bilan mahsulot nusxasining noyob raqamini taqdim etuvchi belgilarning ketma-ketligi;

mahsulotlar jamlanmasining identifikatsiyalash kodi — o'zi bilan mazkur Qoidalarga muvofiq mahsulotlar jamlanmasini identifikatsiyalash maqsadlari uchun shakllantiriluvchi mahsulotlar jamlanmasini nusxasining noyob raqamini taqdim etuvchi belgilar ketma-ketligi;

mahsulotlar to'plamining identifikatsiyalash kodi — o'zi bilan mazkur Qoidalarga muvofiq mahsulotlar to'plamini identifikatsiyalash maqsadlari uchun shakllantiriluvchi mahsulotlar to'plami nusxasining noyob raqamini taqdim etuvchi belgilar ketma-ketligi;

transport qadog'ining identifikatsiyalash kodi — o'zi bilan mazkur Qoidalarga muvofiq shakllantiriluvchi transport qadog'i nusxasining noyob raqamini taqdim etuvchi belgilar ketma-ketligi;

tekshirish kodi — identifikatsiyalash kodi asosida imito qo'shish tartibida Operator tomonidan shakllantirilgan va uni fiskal to'plagich va (yoki) tekshirish kodining texnik vositalarini qo'llash orqali tekshirishda identifikatsiyalash kodining qalbakilashtirilganligini aniqlashga imkon beruvchi belgilarning ketma-ketligi;

mahsulot kodi — mahsulot nomenklaturasi bo'yicha mahsulotlar to'g'risida haqqoniy ma'lumotlarning hisobini yuritish va saqlanishini ta'minlovchi axborot resursida ularni ta'riflashda mahsulotlar guruhida tavsiflanuvchi noyob kod;

mahsulotlar jamlanmasi — sotish (savdo) maqsadlarida tarqatib yuborilishi kerak bo'lmagan umumiy iste'mol qadog'iga birlashtirilgan va mahsulotlar jamlanmasining identifikatsiyalash kodiga ega bo'lgan mahsulotni o'z ichiga oluvchi ishlab chiqaruvchi tomonidan shakllantiriluvchi mahsulotlar majmui;

shaxsiy kabinet — Operator tomonidan belgilangan tartibda mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisiga yoki davlat boshqaruv organiga taqdim etiluvchi va Operator, mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisi va davlat boshqaruv organi tomonidan qo'llaniluvchi, Internet jahon axborot tarmog'ida Operatorning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan axborot servisi;

Oldingi tahrirga qarang.

raqamli markirovkalangan mahsulot — mazkur Qoidalar talablariga rioya etish bilan raqamli identifikatsiyalash vositalari bosib tushirilgan va u haqidagi haqqoniy ma'lumotlar (jumladan, unga bosib tushirilgan raqamli identifikatsiyalash vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar) markirovkalash axborot tizimida saqlanuvchi mahsulot;

(4-bandning yigirma beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

Oldingi tahrirga qarang.

raqamli markirovkalanmagan mahsulot — raqamli identifikatsiya vositasi bilan markirovkalanmagan va (yoki) buzilgan (o'qilmaydigan) raqamli identifikatsiya vositasiga ega bo'lgan va (yoki) soxta (soxtalashtirilgan) markirovka kodlari bilan markirovkalangan va (yoki) ushbu Qoidalarning (shu jumladan, markirovka kodlarini qayta ishlatish, Operator tomonidan mahsulotlar aylanmasining boshqa ishtirokchisiga va (yoki) boshqa mahsulotlar guruhini markirovkalash maqsadida berilgan markirovka kodlaridan foydalanish) talablarini buzilgan holda markirovkalangan mahsulotlar;

(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qaroriga asosan yigirma oltinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

markirovka — mazkur Qoidalarga muvofiq identifikatsiyalash vositasini mahsulotga yoki uning qadog'iga yoki boshqa moddiy tashuvchiga bosib tushirish;

mahsulotlar to'plami — mahsulotlar to'plamining identifikatsiyalash kodiga ega bo'lgan va uni tarqatish imkoniyati bilan sotilishi kerak bo'lgan umumiy iste'mol qadog'i bilan birlashtirilgan mahsulotlar aylanmasi ishtirokchi tomonidan shakllantiriluvchi mahsulotlar yig'indisi;

mahsulotlar aylanmasi — mahsulotning O'zbekiston Respublikasiga olib kirilishi, ishlab chiqarilishi, saqlanishi, transportda tashilishi, qabul qilinishi va berib yuborilishi, jumladan, uning O'zbekiston Respublikasi hududida sotib olinishi va sotilishi;

Operator — markirovkalash axborot tizimi yaratilishini, rivojlantirilishini, takomillashtirilishini va ishlatilishini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxs;

rouming operatori — markazlashgan saqlanishni, operatorlar orasida uzatishni va elektron hisobvara-fakturalarning yuritilishini ta'minlovchi yuridik shaxs;

fiskal ma'lumotlar operatori — onlayn tartibda fiskal ma'lumotlarning qabul qilinishi, ularga ishlov berilishi va saqlanishini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi "Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi" davlat unitar korxonasi;

Излаш



[Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida](#)

1-ILOVA
[Mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish QOIDALARI](#)

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Mahsulotlarni raqamli markirovkalashni joriy qilish tartibi

3-bob. Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarining markirovkalash axborot tizimi bilan axborot almashuvi tartibi

4-bob. Markirovkalash axborot tizimida mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish

5-bob. Mahsulotlarni markirovkalash bo'yicha axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish

6-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarining xususiyatlari

7-bob. Markirovkalash kodlarini taqdim etish qoidalar

8-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarini qo'llash tartibi

9-bob. Markirovkalash axborot tizimiga mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarning aylanmaga kiritilishi, ularning aylanmasi va aylanmadan chiqarish ma'lumotlarini taqdim etish tartibi va muddatlari hamda markirovkalash axborot tizimining boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro hamkorligi tartibi

10-bob. Markirovkalash axborot tizimida mavjud ma'lumotlarga o'zgartirish kiritish tartibi

11-bob. Qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish

12-bob. Majburiy raqamli markirovka qoidalarini buzish turlari

2-ILOVA
["Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va undan foydalanish tartibi to'g'risida NIZOM](#)

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Markirovkalash axborot tizimining tuzilmasi

3-bob. Markirovkalash axborot tizimining ishtirokchilari

4-bob. Markirovkalash axborot tizimini yaratish, rivojlantirish, ishga

Излаш



[Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida](#)

1-ILOVA
[Mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish QOIDALARI](#)

[1-bob. Umumiy qoidalar](#)

[2-bob. Mahsulotlarni raqamli markirovkalashni joriy qilish tartibi](#)

[3-bob. Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarining markirovkalash axborot tizimi bilan axborot almashinuvi tartibi](#)

[4-bob. Markirovkalash axborot tizimida mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish](#)

[5-bob. Mahsulotlarni markirovkalash bo'yicha axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish](#)

[6-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarining xususiyatlari](#)

[7-bob. Markirovkalash kodlarini taqdim etish qoidalar](#)

[8-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarini qo'llash tartibi](#)

[9-bob. Markirovkalash axborot tizimiga mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarning aylanmaga kiritilishi, ularning aylanmasi va aylanmadan chiqarish ma'lumotlarini taqdim etish tartibi va muddatlari hamda markirovkalash axborot tizimining boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro hamkorligi tartibi](#)

[10-bob. Markirovkalash axborot tizimida mavjud ma'lumotlarga o'zgartirish kiritish tartibi](#)

[11-bob. Qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish](#)

[12-bob. Majburiy raqamli markirovka qoidalarini buzish turlari](#)

2-ILOVA
["Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va undan foydalanish tartibi to'g'risida NIZOM](#)

[1-bob. Umumiy qoidalar](#)

[2-bob. Markirovkalash axborot tizimining tuzilmasi](#)

[3-bob. Markirovkalash axborot tizimining ishtirokchilari](#)

[4-bob. Markirovkalash axborot tizimini yaratish, rivojlantirish, ishga](#)

mahsulotlarning qoldirlari — raqamli identifikatsiyalash vositalari yordamida majburiy markirovkalashni kiritish to'g'risida qaror qabul qilingan va shunday majburiy markirovkalashni kiritish sanasiga mahsulotlar ishlab chiqarilishini va (yoki) ularning aylanmasini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkorlarning egaligida va (yoki) ishlatishida va (yoki) tasarrufida bo'lgan mahsulotlar;

qayta markirovkalash — avval bosib tushirilgan raqamli identifikatsiyalash vositalarining yo'qotilishi yoki shikastlanishi munosabati bilan mazkur Qoidalarga muvofiq iste'mol qadog'iga yoki yorlig'iga raqamli identifikatsiyalash vositasini qayta bosib tushirish;

mahsulotlar katalogi — markirovkalangan mahsulotlar haqidagi ma'lumotlarni kataloglashtirish va saqlash uchun qo'llaniladigan mahsulotlarni markirovkalash axborot tizimining quyi tizimi;

iste'mol qadog'i — mahsulot bilan iste'molchiga keltiriluvchi va guruhlangan qadoq yoki transport qadog'i funksiyasini bajarmaydigan birlamchi qadoq (mahsulot bilan bevosita kontaktda bo'lgan qadoq) yoki birlamchi qadoq va ikkilamchi qadoqlarning yig'indisi (birlamchi qadoqdagi mahsulot joylashtiriluvchi, ammo mahsulotning guruhlangan qadoq yoki transport qadog'i hisoblanmaydigan qadoqlar);

ishlab chiqaruvchi — O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari hisoblanuvchi va O'zbekiston Respublikasi hududida mahsulot ishlab chiqarilishini va sotilishini amalga oshiruvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

raqamli identifikatsiyalash vositasi — mahsulotga, mahsulot qadog'iga yoki boshqa moddiy tashuvchiga bosib tushirish uchun mazkur Qoidalar bilan shakllantiriluvchi ikki o'lchamli shtrix kod ko'rinishida taqdim etilgan mashina yordamida o'qiluvchi shakldagi markirovkalash kodi;

buyurtmalarni boshqarish stansiyasi — mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisi va markirovkalash axborot tizimi o'rtasida axborot almashinuvi uchun mo'ljallangan va markirovkalash kodlarini olish va raqamli identifikatsiyalash vositalari yordamida markirovkalash to'g'risida ma'lumotlarni markirovkalash axborot tizimiga uzatish uchun dasturiy-texnik vosita;

transport qadog'i — agregatsiyalash jarayonida iste'mol yoki guruhlangan qadoqdagi mahsulotni birlashtiruvchi, joydan joyga ko'chirishda shikastlanishdan mahsulotni himoyalash maqsadida uning saqlanishi va transportda tashish uchun qo'llanuvchi va mustaqil transport birligini hosil qiluvchi (jumladan, birinchi daraja transport qadog'i hamda keyingi daraja transport qadoqlari) qadoq;

mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari — mahsulotni aylanmaga kirituvchi, uning aylanmasini va (yoki) aylanmadan chiqarilishini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari hisoblanuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar. Bunda mahsulotning kelajakda sotilishi (savdosi) bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda qo'llash uchun uni sotib oluvchi hamda mahsulotning namunalar bo'yicha sotilishida yoki masofadan sotish usulida, jumladan ular bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar, jumladan, logistik xizmatlar, birja va elektron tijoratni tashkil etish bo'yicha xizmatlar, mahsulotning qayta savdoga tayyorligi, yig'ilishi va o'ralishi, berilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan to'lov uchun pul mablag'larini bir vaqtda qabul qilish bilan sotuvchining nomidan yakuniy iste'molchiga mahsulot yetkazib berilishini tashkil etish mahsulotni yetkazib berish bo'yicha agentlik shartnomalari, va (yoki) komissiya shartnomalari, va (yoki) pochta xizmatlari doirasida xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari;

yorliq — yozuvlar, tasvirlar, belgilar, ramzlar, boshqa belgilanishlar va (yoki) ularning majmuasi ko'rinishida mahsulot to'g'risidagi ma'lumotni tushiruvchi va qadoqqa, jumladan, yopishtirish yo'li bilan mahkamlanuvchi ma'lumotni tashuvchi;

elektron raqamli imzo — elektron raqamli imzoning yopiq kalitini qo'llash bilan elektron hujjatning ma'lumotlarini maxsus o'zgartirish natijasida olingan va elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi ma'lumotlarning buzilishlari mavjud emasligini o'rnatish va elektron raqamli imzoning yopiq kaliti egasini identifikatsiya qilishga imkon beruvchi elektron hujjatdagi imzo;

elektron hujjat — elektron hujjatni identifikatsiya qilishga imkon beruvchi, elektron hujjat rekvizitlariga ega bo'lgan elektron shaklda qayd etilgan ma'lumot;

elektron hisobvara-q-faktura — O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan belgilangan shakl bo'yicha rasmiylashtiriluvchi, elektron hisobvara-q-fakturalar aylanmasi tizimi operatorlari orqali chiqariluvchi va olinuvchi mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) sotilishini va xarid qilinishini tasdiqlovchi elektron hujjat (jumladan, qo'shimcha hisobvara-q-faktura va to'g'rilangan hisobvara-q-faktura).

2-bob. Mahsulotlarni raqamli markirovkalashni joriy qilish tartibi

5. Raqamli identifikatsiyalash vositalari yordamida majburiy markirovka qilinishi kerak bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar tarkibidan mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari mazkur Qoidalarga muvofiq:

a) tegishli mahsulot guruhi uchun belgilangan davr mobaynida raqamli identifikatsiyalash vositalari yordamida majburiy markirovka qilinishi kerak bo'lgan mahsulotlar uchun yoki majburiy markirovka qilinishi kerak bo'lgan mahsulotlarni aylanmaga kiritish va (yoki) ularning aylanmasi va (yoki) ularni aylanmadan chiqarish bilan bog'liq bo'lgan

mahsulot aylanmasi ishtirokchisi majburiyati yuzaga kelgan kundan boshlab 7 kalendar kun mobaynida markirovkalash axborot tizimidan ro'yxatdan o'tadi;

b) markirovkalash axborot tizimidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 30 kalendar kundan kechiktirmay muddatda xususiy dasturiy ta'minotni markirovkalash axborot tizimi bilan o'zaro axborot almashinuviga tayyorligini ta'minlaydi va o'zaro axborot almashinuvini sinovdan o'tkazish uchun Operatorga ariza yuboradi;

v) markirovkalash axborot tizimida ro'yxatdan o'tgandan keyin Operatorga buyurtmalarni boshqarish stansiyasi va (yoki) chiqib ketishni ro'yxatdan o'tkazish qurilmasi taqdim etilishiga arizani elektron shaklda yuboradi;

g) xususiy dasturiy ta'minot markirovkalash axborot tizimi bilan o'zaro axborot almashinuviga tayyor bo'lgan kundan boshlab 60 kalendar kundan kam bo'lmagan muddatda rasmiy operatorlarning veb-saytida joylashtirilgan mahsulotlar markirovkasi, mahsulotlarni aylanmaga kiritish, ularni aylanmadan chiqarish jarayoni bilan bog'liq tartibga asosan xususiy dasturiy ta'minotni markirovkalash axborot tizimi bilan o'zaro axborot almashish uchun sinovdan o'tkazadi;

d) mazkur Qoidalarining 4-bandi "a" — "g" kichik bandlarida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirgandan keyin mazkur Qoidalariga muvofiq markirovkalash axborot tizimiga mahsulotlarning markirovkalanishi hamda mahsulotlarni aylanmaga kiritish, ularni aylanmadan chiqarish to'g'risida ma'lumotlarni kiritadi.

Raqamli identifikatsiyalash bilan majburiy markirovka qilinishi shart bo'lgan mahsulot aylanmasining boshqa ishtirokchilari ushbu Qoidalarining 4-bandi "a" — "e" kichik bandlarida ko'rsatilgan harakatlarni markirovkalashning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilangan muddatlarda tegishli mahsulot guruhlarini raqamli identifikatsiyadan o'tkazadi.

6. Operator raqamli identifikatsiyalash vositalari yordamida mahsulotlarning majburiy markirovkalanishini joriy qilish maqsadida quyidagilarni ta'minlaydi:

a) mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilariga buyurtmalarni boshqarish stansiyalarini, buyurtmalar chiqib ketishini ro'yxatdan o'tkazish qurilmalarini, bunday asbob-uskunalarini taqdim etishga (asbob-uskunalariga kirishga) mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilaridan arizalar olingan kundan boshlab 90 kalendar kundan kech bo'lmagan muddatda mazkur Qoidalar bilan ko'zda tutilgan shartlarda taqdim etish (taqdim etish ostida, jumladan, raqamli markirovkalash tizimining infratuzilmasiga joylashtirilgan buyurtmalarni boshqarish stansiyasiga masofadan kirish tushuniladi) (mazkur Qoidalar va mahsulot guruhi uchun raqamli identifikatsiyalash vositalari yordamida markirovkalashning o'ziga xos xususiyatlarida shunday kirishni taqdim etish zarurati nazarda tutilgan taqdirda);

b) markirovkalash axborot tizimi bilan o'zaro axborot almashinuviga tayyorlik to'g'risidagi xabarnoma mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisidan olingan kundan boshlab 30 kalendar kundan kech bo'lmagan muddatda mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarining va markirovkalash axborot tizimining dasturiy ta'minoti bilan o'zaro axborot almashinuvini sinovdan o'tkazishni tashkil etish;

v) mahsulotlarni raqamli identifikatsiyalash vositalari bilan markirovkalaydigan mahsulot aylanmasi ishtirokchilariga mahsulot aylanmasi ishtirokchisi Operatorga ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha ma'lumotlarni taqdim etgan taqdirda, raqamli identifikatsiyalash vositalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan markirovkalash kodlarini taqdim etish.

3-bob. Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarining markirovkalash axborot tizimi bilan axborot almashinuvini tartibi

7. Markirovkalash axborot tizimiga mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan ma'lumotlarning taqdim etilishi ma'lumotlarni yuborishning standart protokollari va elektron hujjatlarni (ariza, bildirgi, kvitansiya va hokazolar) almashish yo'li bilan Operator tomonidan ishlab chiqilgan o'zaro axborot almashinuvini aloqa-texnik dasturlarining qo'llanilishi bilan amalga oshiriladi, ularning shakllari Operator tomonidan belgilanadi va Internet jahon axborot tarmog'ida Operatorning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

Mahsulot aylanmasi ishtirokchisi tomonidan markirovkalash axborot tizimiga guruhlangan qadoq, transport qadog'i yoki mahsulotlar to'plami to'g'risida ma'lumotlarning taqdim etilishi markirovkalash axborot tizimi ma'lumotlari bo'yicha shunday guruhlangan qadoq, transport qadog'i, yoki mahsulotlar to'plami, yoki muvofiq tarzda mahsulotlar jamlanmasida saqlanuvchi iste'mol qadoqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni markirovkalash axborot tizimiga yuborish bilan bir xil hisoblanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisi tomonidan markirovkalash axborot tizimiga agregatsiyalangan import kodi to'g'risida ma'lumotlarning taqdim etilishi markirovkalash axborot tizimining ma'lumotlari bo'yicha shunday agregatsiyalangan import kodida saqlanuvchi iste'mol qadoqlari to'g'risida ma'lumotlarni ularga taqdim etilishiga tenglashtiriladi.

(7-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

8. Markirovkalash axborot tizimiga mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan mazkur Qoidalarining talablariga muvofiq yo'naltirilgan barcha hujjatlar va ma'lumotlar

Излаш



[Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida](#)

[1-ILOVA Mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish QOIDALARI](#)

[1-bob. Umumiy qoidalar](#)

[2-bob. Mahsulotlarni raqamli markirovkalashni joriy qilish tartibi](#)

[3-bob. Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarining markirovkalash axborot tizimi bilan axborot almashinuvini tartibi](#)

[4-bob. Markirovkalash axborot tizimida mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish](#)

[5-bob. Mahsulotlarni markirovkalash bo'yicha axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish](#)

[6-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarining xususiyatlari](#)

[7-bob. Markirovkalash kodlarini taqdim etish qoidalarini](#)

[8-bob. Raqamli identifikatsiyalash vositalarini qo'llash tartibi](#)

[9-bob. Markirovkalash axborot tizimiga mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarning aylanmaga kiritilishi, ularning aylanmasi va aylanmadan chiqarish ma'lumotlarini taqdim etish tartibi va muddatlari hamda markirovkalash axborot tizimining boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro hamkorligi tartibi](#)

[10-bob. Markirovkalash axborot tizimida mavjud ma'lumotlarga o'zgartirish kiritish tartibi](#)

[11-bob. Qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish](#)

[12-bob. Majburiy raqamli markirovka qoidalarini buzish turlari](#)

[2-ILOVA "Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va undan foydalanish tartibi to'g'risida NIZOM](#)

[1-bob. Umumiy qoidalar](#)

[2-bob. Markirovkalash axborot tizimining tuzilmasi](#)

[3-bob. Markirovkalash axborot tizimining ishtirokchilari](#)

[4-bob. Markirovkalash axborot tizimini yaratish, rivojlantirish, ishga](#)

markirovkalash axborot tizimida aks ettirilishi shart.

9. Operator quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda hujjatlarning (jumladan, arizalar, bildirgilar) qabul qilinishini yoki markirovkalash axborot tizimiga ma'lumotlar kiritilishini mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisiga rad etadi:

a) hujjatlar yoki ma'lumotlar o'rnatilgan shaklga muvofiq kelmaganda, noto'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lganda yoki mazkur Qoidalar bilan ko'zda tutilgan majburiy ma'lumotlarni o'z ichiga olmaganda;

b) hujjatlar yoki ma'lumotlar imzolanmaganda yoki ushbu hujjatlar va ma'lumotlarni imzolash uchun qonuniy huquqlarga yoki hujjatlarni yoki ma'lumotlarning shunday turini imzolash huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan imzolanganida;

v) mahsulot aylanmasi ishtirokchisiga nisbatan yuridik shaxsning faoliyatini tugatish yoki jismoniy shaxsning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyatini tugatish to'g'risida Tadbirkorlik subyektlarining Yagona davlat ro'yxatida yozuv mavjud bo'lganda.

Oldingi tahrirga qarang.

g) mahsulot aylanmasi ishtirokchisi markirovkalash axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazilmagan.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qaroriga asosan "g" kichik band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

10. Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisi u tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning markirovkalash axborot tizimi tomonidan qabul qilinganligi, yoki unga ma'lumotlarni kiritish, yoki markirovkalash axborot tizimi tomonidan hujjatlarning qabul qilinishi rad etilishi yoki unga quyidagi ma'lumotlarni saqlovchi tegishli bildirgini (kvitansiya) yuborish yo'li bilan ma'lumotlarni kiritish to'g'risida xabardor qilinadi:

a) mahsulot aylanmasi ishtirokchisi hujjatining ro'yxatdan o'tish raqami;

b) bildirgi (kvitansiya) raqami;

v) bildirgi (kvitansiya) sanasi;

Oldingi tahrirga qarang.

g) mahsulotning identifikatsiyalash kodlari, mahsulotlar to'plamlarining identifikatsiyalash kodlari, mahsulotlar jamlanmalarining identifikatsiyalash kodlari, guruhlangan qadoqning identifikatsiyalash kodlari, yoki transport qadog'ining identifikatsiyalash kodlari, yoki agregatsiyalangan import kodlari;

(10-bandning "g" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2022-y., 09/22/148/0262-son)

d) markirovkalash axborot tizimiga hujjatlarni (ma'lumotlarni) kiritish yoki ularni kiritishni rad etish sabablari to'g'risida xabar.

11. Mazkur Qoidalarning 10-bandida ko'rsatilgan bildirgi (kvitansiya) mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisi tomonidan hujjatlar taqdim etilganda yoki u tomonidan markirovkalash axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritgan kundan boshlab 1 kalendar kun davomida markirovkalash axborot tizimidagi shaxsiy kabinet yoki elektron pochta orqali o'zaro axborot almashish interfeyslarni qo'llash orqali mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisiga yuboriladi.

12. Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisi tomonidan elektron hujjatlarning taqdim etilishi yoki u tomonidan markirovkalash axborot tizimiga ma'lumotlarning kiritilishi sanasi etib hujjatlarni (ma'lumotlarni) qabul qilish to'g'risidagi bildirgida (kvitansiyada) qayd etilgan sana tan olinadi.

Mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisining markirovkalash axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish bo'yicha majburiyatlarni bajarishi dalili markirovkalash axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish to'g'risidagi bildirgi (kvitansiya) bilan tasdiqlanadi.

